

INGLIZ TILINING TA'LIMDA DOLZARBLIGI

Turg'unova Dilnoza G'ofurjon qizi

Namangan Davlat Chet tillari Instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası

o'qituvchisi

dilnozaturgunova0797@gmail.com, +998906990797

Annotaciya: *Ingliz tili — dunyoda eng ko'p tarqalgan va eng ko'p o'rganiladigan tillardan biridir. U ko'plab mamlakatlarda davlat tili yoki rasmiy til sifatida qabul qilingan. Hozirgi kunda turk dunyosiga ingliz tili faol ravishda kirib kelmoqda va bu til deyarli har bir ijtimoiy faoliyat sohasiga ta'sir ko'satmoqda. Ingliz tilining kirib kelishi rejalashtirilgan va davlat darajasida amalga oshirilmoqda. Buning sababi shundaki, ingliz tili orqali yoshlar ko'plab ijtimoiy sohalarda — ta'lim, ilm-fan, iqtisodiyot, diplomatiya va boshqalarda keng va chuqur faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lishadi.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, muloqot, xalq ta'limi, o'qitish metodlari, malakali kadrlar*

2020 yilda Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov va EF Education First Karl-Johann Westring prezidenti o'zaro kelishuv memorandumini imzoladilar. Xususan, tomonlar talabalar, o'qituvchilar va xohlagan har bir kishining bilimini baholash uchun hamkorlik o'rnatishni va ingliz tilini o'qitish sohasida bir qancha treninglar o'tkazishni rejalashtirishdi. Hujjat doirasida EF Education First O'zbekistonda ingliz tilini rivojlantirish bo'yicha ta'lim dasturlarini qo'llab-quvvatlash uchun 59,27 million dollarlik to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritishga tayyorligini bildirdi. Bu va bundan tashqari juda ham kop islohotlar ingliz tilini yurtimizda keskin rivojlanib bo'rayotganiga dalildir.(2)

Ingliz tilining ahamiyati va dolzarbligi bir necha jihatdan ko'rinadi:

Global til

Ingliz tili xalqaro aloqalar, savdo, diplomatiya, ilm-fan va madaniyat sohalarida asosiy til hisoblanadi. Ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Yevropa Ittifoqi (YI) ingliz tilini rasmiy til sifatida qabul qilgan.

Ta'lim va ish imkoniyatlari

Ingliz tilini bilish, ta'lim olish va ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ko'plab universitetlar va ta'lim muassasalari ingliz tilida ta'lim beradi, shuningdek, ko'plab xalqaro kompaniyalar ingliz tilini biladigan xodimlarni afzal ko'radi.

Madaniyat va axborot

Ingliz tili orqali global madaniyat, adabiyot, kino, musiqa va boshqa san'at turlari bilan tanishish mumkin. Ko'plab mashhur filmlar, kitoblar va musiqalar ingliz tilida yaratilgan, bu esa ingliz tilini o'rganishni yanada qiziqarli qiladi.

Internet va texnologiya

Ingliz tili internetda eng ko'p ishlatiladigan til hisoblanadi. Ko'plab veb-saytlar, onlayn kurslar va resurslar ingliz tilida mavjud, bu esa ingliz tilini o'rganishni osonlashtiradi.

O'qitish metodlari

Ingliz tilini o'rganish uchun turli xil metodlar va resurslar mavjud. Interaktiv ta'lim, onlayn platformalar, mobil ilovalar va boshqa zamonaviy texnologiyalar orqali ingliz tilini o'rganish jarayoni yanada samarali va qiziqarli bo'ladi.

Ijtimoiy va madaniy almashuv

Ingliz tilini bilish, boshqa madaniyatlar bilan muloqot qilish va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, global hamjihatlikni oshiradi.

O'zbekistonda chet tillarini o'qitishda malakali va tajribali o'qituvchilarning yetishmasligi ta'lim sifatini pasaytiradi. O'quvchilarning og'zaki ko'nikmalarini rivojlantirishda nutq amaliyoti va haqiqiy til muhitining yetishmasligi muhim to'sqinlik qiladi. An'anaviy o'qitish usullari, asosan, grammatika va mexanik yodlashga e'tibor qaratishi, samarali muloqotga yordam bermaydi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun chet tillari o'qituvchilari uchun ilg'or metodikalarga qaratilgan ta'lim dasturlariga investitsiya kiritish muhimdir. Bolalar va maktab ta'limi vazirligi doirasida o'tkazilgan maxsus loyiha doirasida, mintaqalardagi pedagoglar ingliz tilini o'qitish bo'yicha jahon miqyosida tan olingan TESOL va TEFL dasturlari bo'yicha ta'lim oldilar. Ushbu dasturlar metodik jihatdan yuqori samaradorlikni ko'rsatdi va o'qituvchilarga ingliz tilini chet tili sifatida muvaffaqiyatli o'qitish uchun zarur bo'lgan vositalar va ko'nikmalarni taqdim etdi.

Talabalar ehtiyojlariga va pedagogik texnologiyalarni chuqur o'rganishga qaratilgan metodikalar tufayli, TESOL va TEFL dasturlarida ishtirok etgan o'qituvchilar malakali va ishonchli pedagoglarga aylanadi. Ular barcha yoshdagi va tayyorgarlik darajasidagi talabalar uchun samarali til o'rganishni ta'minlaydigan qiziqarli va interaktiv darslar yaratishga qodir. Bunday darslarni doimiy ravishda o'tkazish, o'qitilgan pedagoglar o'z bilimlarini boshqalarga yetkazadigan kaskad usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Lingvistlar va chet tillari bo'yicha ekspertlar bilan hamkorlik qilish zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga yordam berishi mumkin, bu esa turli o'qish uslublari va muloqot ehtiyojlariga mos keladi. O'qitish metodologiyasini qayta ko'rib chiqish, grammatika va muloqot o'rtasida muvozanat yaratish zarur. Zamonaviy til resurslari, ilovalar, onlayn platformalar va boshqa ilg'or texnologiyalarni qo'llash ushbu muvozanatli yondashuvni to'ldirib, ta'lim

jarayonini qiziqarliroq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Dzhusupov M. Retsenziya monografiyaga: Raximov G.X. "Ingliz tili O'zbekistonda: sotsiolingvistik va pragmatik ko'rsatkichlar" (Ingliz tili O'zbekistonda: sotsiolingvistik va pragmatik aspektlar). Toshkent: TAMADDUN, 2017
2. <https://www.schoolrate.ru/article/stati/o-zbekiston-taraqqiyotida-ingliz-tilining-o-rni/>
3. Zubaydova, N., & Hotamova, L. . (2024). O'ZBEKISTONDA INGLIZ TILINI O'RGANISHNING AHAMIYATI VA MUHIM TARMOQLARI. *Молодые ученые*, 2(27), 112–116. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view/47014>
4. Нормуродова Н. “ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ: МАСШТАБНЫЕ РЕФОРМЫ, ИНТЕГРАЦИЯ, ПРОФЕССИОНАЛИЗМ”